

Yadroviy tibbiyot – bu zamonaviy tibbiyotning eng innovatsion usulidir

Rossiya Sogliqni saqlash vazirligining Bosh onkologi, Rossiya Fanlar akademiyasi akademigi Andrey Dmitriyevich Kaprin va Rossiya Fanlar akademiyasi muxbir aʼzosi Ivanov Sergey Anatolyevich Oʻzbekistonga tashrif doirasida kecha Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi institutida boʻlishdi.

Institutda Akademik I.V.Kurchatov, U.O. Orifov va S.A.Azimovlar tomonidan yaratigan ilmiy meros, olimlarning tashabbusi bilan 1956-yil tashkil etilgan. 1957-yildan boshlab ish boshlagan yadro reaktori faoliyati bilan yaqindan tanishishdi. "Radiopreparat" DUK boʻlib Onkologik, kardiologik va endokrin kasalliklarni tashxislash va davolash uchun radiofarmatsevtikaning barcha yangiliklarini shaxsan guvohi boʻlishdi. Mehmonlar Yadro fizikasi instituti bilan tanishar ekan Oʻzbekistonda Yadroviy tibbiyot rivojlantirish uchun barcha asoslar bor ekanligini – bu zamonaviy tibbiyotning eng innovatsion va tez rivojlanayotgan yoʻnalishlaridan biriligini eʼtirof etishdi. Yadroviy tibbiyot usullari shifokorlarga kasallik rivojlanishining boshlangʻich bosqichida xavfli saraton hujayralarini aniqlashda yordam beradi, bu esa deyarli 100% ishonch bilan davolanish imkoniyatini beradi.

Yadroviy tibbiyot – radiofarmasotik deb ataladigan radioaktiv izotoplarni oʻz ichiga olgan farmatsevtik preparatlardan foydalangan holda kasalliklarni tashxislash va davolashdir. Radiofarmatsevtik preparatlar turli organlarning saratonini tashxislash va davolash uchun keng qoʻllaniladi. Radiofarmatsevtik preparatlar bilan davolashning afzalliklari orasida uning mahalliy taʼsir etuvchi xususiyati hisoblanib, kimyoviy terapiyadan farqli oʻlaroq butun organizmga taʼsir koʻrsatmasligini olimlar oʻz suhbatlarida takror va takror taʼkidlashdi. Rossiya tibbiyotida oʻz oʻrniga ega boʻlgan olimlar Fanlar akademiyasining Immunologiya va inson genomikasi institutida ham boʻlib, institut olimlarining bugungi ilmiy izlanishlari, tadqiqotlari bilan tanishishdi. Institutning har jihatdan zamonaviy qilib qurilgan yangi binosini koʻzdan kechira turib A.D. Kaprin – “Oʻzbekistonda tibbiyotga, ilm-fanga boʻlgan eʼtiborni barcha imkoniyatlari mavjud immunologiya institutining mana shu binosi misolida ham koʻrish mumkin” dedi. Uchrashuvlar va suhbatlar davomida olimlar oʻzaro hamkorlik qilish, ilmiy tajribalarini almashishga kelishib olishdi.



